

BIRINCHI SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

Hakimova Marjona Iskandarzoda

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda yangi va qiziqarli metodlarni qo'llash hamda dars jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy innovatsiya, metod, o'yin, ta'limiy, ta'lim, multfilmlar, "Merry Riddles", pantomime.

Abstract. In this article, as a result of the use of new and interesting methods in teaching English in primary grades, as well as the use of modern approaches and innovative methods in the course of the lesson, the development of students' logical thinking skills, fluency in speech, quick and correct answers Information is given about the formation of teaching skills and the desire to prepare thoroughly for classes.

Keywords: Modern innovation, method, game, educational, educational, cartoons, "Merry Riddles", pantomime.

Абстрактный. В данной статье в результате использования новых и интересных методик в обучении английскому языку в начальных классах, а также использования в ходе урока современных подходов и инновационных методов, развитие у учащихся навыков логического мышления, беглости в речи, быстрых и правильных ответах Дается информация о сформированности педагогических навыков и стремлении основательно подготовиться к занятиям.

Ключевые слова: Современное новаторство, метод, игра, развивающие, развивающие, мультфильмы, «Веселые загадки», пантомима.

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Shu boisdan respublikamizda sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish maqsadida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshdi va davlatimiz tomonidan til o'rganishga ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

So'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga va o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan, ingliz tili fanini qiziqarli qilib o'tishni ya'ni turli innovatsion metodlardan, texnik vositalardan, turli

xil o'quvchini jalb qiluvchi, interfaol o'yinlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Dars davomida bunday o'yinlardan foydalanish o'quvchining fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Ingliz tilini o'rganish bugungi taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. Binobarin, yosh avlod o'rtasida ushbu fanga bo'lgan qiziqishni nafaqat oshirish, balki ularning bu yo'ldagi izlanishlarini rag'batlantirish ota-onalar qatori pedagoglar zimmasiga ham mas'uliyat yuklaydi.

Hozirgi rivojlanish jarayonida ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Chunki ingliz tili jahon tiliga aylandi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishini isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir. 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirib qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun bir nechta turli xil innovatsion metodlardan foydalanish lozim. Keling, boshlang'ich sinflarda, xususan, birinchi sinflarda ingliz tilini o'rgatish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta qiziqarli va samarali metodlarni ko'rib chiqamiz:

“Ko'rish orqali eslab qolish.” Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish. Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

Yana bir samarali metod qo'shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylashdir. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

“Multfilmlar orqali o'rgatish.” Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular

ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

“Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish.” Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o'yinlar so'zimizga misol bo'la oladi:

"Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoqning javobini topadilar.

"Pantomima" (pantomime). Bunda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni aytadi va o'quvchi uni ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar esa so'zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo'ladi.

Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, agar iloji bo'lsa, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak. Masalan: o'qituvchi bir o'quvchining olmani tatib ko'rishi paytida uning rangi qizil(red) yoki yashil(green), ta'mi shirin(tasty) yoki katta(big), kichik (small) shakli haqida ma'lumot berishi va boshqa o'quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini talab qilishi lozim. Bu hol bolaning keyingi o'rganishlarida ham yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil-red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi. Demak, bunday usuldan foydalanish o'quvchining ma'lumotni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Zero, ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan va bu tillarda bemalol gaplasha olish imkoniyatiga ega bo'lgan insonda dunyo-ilm fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'ladigan energiya doim mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish. - Tajibayev G.Sh.
2. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)IXalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
3. J. Jalolov - ingliz tilini o'qitish metodlari —O'qituvchil nashiryoti Toshkent To'xtasinova, N.R.Q., & Soibjonova, M.T.O.Q. (2022). TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146.